



O'TKIR HOSHIMOVNING "IKKI ESHIK ORASI" ROMANIDA AYOLLAR OBRAZINING YARATILISHI

Fayizova Zargul Baxtiyor qizi

Fan va Texnologiyalar universiteti o'zbek tili va adabiyot yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Ortiqova Hamida Maxmud qizi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14873854>

Annotatsiya: Bu maqolada O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" asaridagi ayollar tasviri tahlilga tortilgan bo'lib, ularning taqdiri, kechinmalari, istiroblari misolida o'zbek ayollarining tipik timsollari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: urush, bosh obrazlar, ayollar timsoli, insonparvarlik, to'qqizta personaj hikoyasi, tipik qahramon, Qora amma, Robiya, Ra'no, Kimsan, hikoyalar kompozitsiyasi, taqdirlar romani.

THE CREATION OF THE SYMBOL OF WOMEN IN OTKIR HASHIMOV'S NOVEL "IKKI ESHIK ORASI"

Annotation. In this article, the image of women in O'tkir Hashimov's work "Ikki eshik orasi" is analyzed, their fate, experiences, and aspirations are examples of typical symbols of Uzbek women.

Key words: war, main characters, women's symbol, humanitarianism, nine character stories, typical hero, Kara amma, Rabiya, Rana, Kimsan, composition of stories, novel of fates.

Kirish. Ma'lumki, O'tkir Hoshimov hayotni va odamlar olamini teran kuzatuvchi, u haqida falsafiy mushohada yurituvchi donishmand hamda iste'dodli yozuvchidir. Uning asarlari iztirobli, insonni ma'naviy dunyosini ochish uchun kalitdir. Bu holatni deyarli har bir asarida ko'rish mumkin. Shuning uchun ular ta'sirchan: kishini bir holatdan ikkinchi holatga olib o'tuvchidir. U o'zi bilmagan mavzuni, mohiyatini anglamagan masalani qalamga olmaydi. O'z qahramonlarini xolisona tirik, hayotini, jonli odam sifatida tasvirlaydi.

Romanda voqealar Toshkent atrofidagi qishloqlardan birida, asosan, ikkinchi jahon urushi yillarida bo'lib o'tadi. Adib asarni yozish davomida qishloq kishilarining urushdan oldingi va urushdan keyingi hayotidan hayajonli lavhalar chizadi. Asar voqealari urush yillariga to'g'ri keladi va urush qoralanadi. Urush faqat frontdagilargagina raxna solmasdan, front ortidagilarning ham jonini taxlikaga soladi. Insonlar kun-u tun front uchun mehnat qiladi. Yoshmi, qarimi- hamma dalaga surgun qilinadi.

Asosiy qism. "Ikki eshik orasi" asari "Rost bilan yolg'onning ortasi –to'rt enlik" degan jumla bilan boshlanadi va o'quvchining bor e'tiborini o'ziga jalb etadi. Asarning bosh qahramonlari sifatida Qora amma, Robiya, Rano, Muzaffar, Kimsanlar tanlangan.

Qora amma. Kimsanning onasi. Qora ammadan qatiq isi kelardi va qovog'i uchsa, xafa bo'lardi, chunki bir falokat bo'lishi mumkin, deb o'ylardi. Bu falokat Kimsaning urushga ketishi edi. Qora amma yolg'iz o'g'lini urushga jo'natib, urush tamom bo'lsa ham, qaytib kelmagan, ammo o'g'lini kutgan o'zbek ayoli. "Tirik ekanman, qimirlayman, ishlamasam kasal bo'lib qolaman" shioribilan yashaydigan ayol. Qora amma uchun Kimsaning jismonan sog'lom bo'lishi emas, tirik kelishi va uni so'nggi manzilga kuzatadigan kishi bo'lishi kifoya edi, ammo o'g'li qaytmadi, yillar o'tsa-da unga a'za ochmadi. Ona o'g'lini ko'rdi, faqat- haykalini.

General haykallardan birining bog'ichini tortgan edi, boshiga ro'mol tashlagancha uzoq-uzoqlarga ma'yus termilib o'tirgan ona paydo bo'ldi. Bu Qora amma edi. U katta-katta, sertomir qo'llarini tizzasiga qo'yib, boshini quyi solib o'tirar, ko'zlarida cheksiz mung umid bor edi, bu esa "Qora amma" va "Kimsan" edi.

Jon bolam jonim bolam

Olloqa topshirdim sani,

Ohimga Ollo yetmadi,

Tuproqqa topshirdim sani.

Robiya. Qora ammaning "qizi". Robiyaning o'z onasi erta vafot etgandan keyin otasi bilan birga qishlog'ini tashlab, o'zga shaharga kelgan va yettiyot begona bir ayolni - "Qora ammani" oyi



degan qizdir. Urush har bir insonga o'z ta'sirini o'tkazadi va Robiya qiz bola bo'la turib dalada traktor haydaydi. U shunchalik qo'rqmas qizki, hatto Zakunchini ham yer tishlatadi va o'zini "sizlatish" darajasiga ko'taradi.

O'z sevgilisini urushga junatgan va u qaytmagach tog'asiga turmushga chiqqan qiz. Alla aytmasdan, beshik tebratmasdan besh yoshli bolaga ona bo'lgan juvon.

Rano. Asarning yana bir asosiy qahramoni. O'z erini urushga junatayotganida "Yo meni ham olib keting yoki bo'lmasa, o'ldirib keting", - deb, keyinchalik xiyonat yo'liga qadam qo'ygan ayol. Bir Zakunchini deb o'g'lini, erini, qishlog'ini, onasini tashlab boshqa shaharga ketgan bevafo. U odamlar nazaridan qolib, iztiroblarga, ruhiy qiynoqlarga to'la hayot kechirishga majbur bo'ldi. Menimcha, u shunga loyiq edi. Ra'noning hamma narsasi bor edi, hattoki umr yo'ldoshi Shomurod uni jonidan ortiq ko'rardi, lekin Ra'no buning qadriga yetmadi. Ra'no o'z nafsining qurboni bo'ldi.

Bu asardagi ayollarni birlashtirib turgan yagona umid urush tugashi va urushga ketgan yaqinlarining hammasi sog' – salomat qaytishi edi. Urush tugadi Shomurod qayti, lekin Kimsan qaytmadi.

Biz "Kimsan" obrazi orqali haqiqiy o'zbek yigiti timsolini ko'ramiz.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, asarda pahlavondek o'g'illarini urushga jo'natgan bardoshli onalar qismati, chimildiq ko'rmasdan yori firoqida ado bo'lgan kelinchaklar taqdiri mohirona tasvirlangan. Aytish mumkinki, bu asarda, asosan ayolar obrazi, urush yillarida ularning boshdan o'tkazgan qiyinchiliklari yoritilgan. Asarda butun o'zbek oilalarining hayotida ayanchli iz qoldirgan urush qoralangan bo'lsa-da, asosiy e'tibor ayollar iztirobi, kechinmalari tasviriga qaratiladi. Asarni o'qish davomida nafaqat urush ta'siridagi iztirob, dard, alamni his qilamiz, balki Robiyaning sof sevgisi, sadoqati va qahramonligiga guvoh bo'lib haqiqiy o'zbek qizining qiyofasini ko'ramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hoshimov O'. "Ikki eshik orasi". Asr oshgan asarlar. Toshkent, 2016.
2. Sarimsoqov B. "Badiiylik asoslari va mezonlari". Toshkent, 2004.
3. Холиқова, Н. Ўзбек мумтоз адабиётида хотин-қизлар образининг бадий тадрижи (Ширин образи мисолида). Toshkent, 2020.